

**HOZIRGI KUNDA O'ZBEKISTONDA INGLIZ TILI
O'RGANISHNING AHAMIYATI**

*Umedova Nigina Sa'dullayevna
Samarqand davlat chet tillari instituti
Xorijiy til va adabiyoti fakulteti
2-kurs bosqich talabasi,
Ilmiyrahbar: SH.Mamayoqubova*

Annotatsiya: Hozirgi kunda O'zbekistonda ingliz tili o'rganishga bo'lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Jumladan, butun dunyoda xorijiy tillarni o'qitish usullari asosiy yo'nalish kabi qaralmoqda va ko'plab samarali natijalarga erishilmoqda. Turli mamlakatlarda o'rgatish metodikasi bir-biridan tubdan farq qilib, bunda nafaqat darsliklar balki innovatsion texnologiyalarning ham o'rni katta. Shuning bilan birgalikda, o'quvchilarning bilim olish salohiyatini yanada kuchaytirishga turtki bo'ladijan metodlar ham muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, kommunikativ, metod, darsliklar, o'rgatish metodikasi, tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish.

Аннотация: Сегодня спрос на изучение английского языка в Узбекистане растет с каждым днем. В частности, методика преподавания иностранных языков считается основным направлением во всем мире и достигается множество эффективных результатов. Методы преподавания в разных странах принципиально различаются, и важную роль в этом играют не только учебники, но и инновационные технологии. В то же время важны и методы, которые мотивируют студентов к дальнейшему укреплению своего учебного потенциала.

Ключевые слова: Информационные технологии, коммуникативная методика, учебники, методика обучения, аудирование, говорение, чтение, письмо.

Abstract: Today, the demand for learning English in Uzbekistan is increasing day by day. In particular, the methods of teaching foreign languages are considered as the main direction all over the world and many effective results are achieved. Teaching methods in different countries are fundamentally different, and not only textbooks, but also innovative technologies play an important role in this. At the same time, the methods that motivate students to further strengthen their learning potential are also important.

Key words: Information technologies, communicative, method, textbooks, teaching methodology, listening comprehension, speaking, reading, writing.

KIRISH

So'ngi yillarda mamlakatimizda til o'rganishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Dunyo tili deb tan olingen Ingliz tilini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega. Axborot texnologiyalari tili deb qaralyotgan Ingliz tili bizning yurtimizda ham keyingi yillarda kengayib bormoqda. Xorijiy tillarni o'rganish orqali kommunikativ imkoniyatlarimiz hamda obro'li ishga kirish ehtimoli oshishi, texnologiyalar tilini oson tushunish, va biz tushunmagan barcha chet tilidagi ma'lumotlarni asl nusxasida tushuna boshlash imkoniyati oshadi.

Chet tili o'qituvchisi boshqa o'qituvchilardan ko'proq maosh oladi Prezident qarorining 7 bandida bunday deyilgan:

“O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Moliya vazirligining chet tillar o'qituvchilari va muallimlariga qonun hujjatlari bilan belgilangan rag'batlantiriluvchi to'lovlar va qo'shimchalarni hisoblashda, ularning lavozim maoshlari tarkibiga kiritgan holda qishloq joylarda joylashgan ta'lim muassasalarida ularning tarif stavkalariga 30 foiz va boshqa ta'lim muassasalarida 15 foiz stavkalari miqdoridagi har oydagи qo'shimchalar qo'shib berishni belgilash to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin”.

Multfilmlarni inglizcha subtitrlar bilan ko'rish mumkin bo'ladi

Bu haqda Birinchi Prezidentimiz qarorining 9 bandida mana bunday deyilgan: “...televide niye, shu jumladan mahalliy telekanallar orqali bolalar va o'smirlarni xorijiy tillarga o'rgatish bo'yicha ko'rsatuvlар tayyorlash hamda ularni translyatsiya qilish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyati, jahon ilmi va texnikasiga bag'ishlangan ilmiy-ommabop xorijiy badiiy hamda multiplikatsiyaviy filmlarni o'zbek tilidagi subtitr yordamida, muntazam ko'rsatib borishni amalga oshirish (ta'minlansin);”

Rus tili nima bo'ladi?

Prezident qarorida bu xususda alohida bir gap yo'q. Hujjatning birinchi bandi: “Belgilab qo'yilsinki, 2013/2014 o'quv yilidan boshlab: respublikaning barcha hududida chet tillarni, asosan, ingliz tilini o'rganish...”, deb boshlanganidan kelib chiqilsa, kelasi o'quv yilidan boshlab o'zbek maktablarida rus tili o'rnini ingliz tili oladi, deb taxmin qilish mumkin.

Qaror ijrosini ta'minlash uchun resurslar yetarlimi?

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti fikricha, yetarli. Bu haqda qarorda mana bunday deyilgan:

“Mustaqillik yillarida 51,7 ming nafardan ziyod chet tillar o'qituvchilari tayyorlandi, umumta'lim maktablarining 5-9 sinflari uchun ingliz, nemis va frantsuz tillari bo'yicha multimedia darsliklari, boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rganish bo'yicha elektron resurslar tayyorlandi, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda 5 mingdan ko'proq lingafon kabinetlari jihozlandi”.

Bugungi kunga kelib chet tillari ayniqsa, ingliz tili o'rganishga bo'lgan talab va qiziqish shunchalik kuchaydiki, bog'cha yoshidagi bolalardan boshlab katta yoshdagi mutaxassislar gacha ingliz tili o'rganishga harakat qilyaptilar. Bu ijobjiy holat albatta, chunki, til o'rganish o'sha tilda gaplashuvchi davlatlar madaniyati, tarixi va urf odatlarini o'rganish bilan birga shaxsiy manfaatlar yo'lida ham eshiklar ochilishiga zamin yaratadi.

Insonlar doimo o'zлari uchun qiziqarli va huzurbaxsh mashg'ulotlar bilan shug'ullanishga harakat qiladilar va hattoki, vaqt qanchalik tez o'tganini ham sezmay qoladilar. Agarda, yangi til ham kuchli qiziqish va ishtiyoq bilan o'rganilsa, maqsadga shunchalik tez va oson yetishish mumkin. Biz esa, ko'pincha bu jarayonni majburiyat sifatida qabul qilamiz va natijada, yangi til o'rganish jarayoni biz uchun juda zerikarli tuyuladi. Natijada, siz uchun zerikarli bo'lgan mashg'ulotdan qochishga yoki kamroq vaqt ajratishga moyillik vujudga keladi. Aksincha, o'zingiz qiziqqan soha yoki mavzu bo'yicha yangi o'rganayotgan tilingiz orqali ma'lumot olishga, tinglashga, yozishga va gapirishga harakat qilsangiz, bu jarayon qanchalik qiziq ekanligini sezishingiz mumkin. Masalan, sport sohasiga qiziquvchilar o'rganayotgan tillari orqali sport yangiliklarini kuzatib borishi, shu tildagi sport sohasiga oid teleko'rsatuvlarni tomosha qilishi, yoki shu soha bo'yicha chet tilida o'z fikrlarini bo'lishishi mumkin. Yana bir ko'pchilik yo'l qo'yadigan xatolardan biri, bu noreal maqsadlarni oldiga qo'yish. Ayrimlar ish, o'qish tufayli yangi til o'ganishga kuniga yarim yoki bir soat vaqt ajratsa-yu, reja asosida esa ikki yoki uch soatlik vaqt belgilasa, kun oxiriga kelib ulgurolmagani uchun stressga tushishi yoki til o'ganishni butunlay tashlab qo'yishi mumkin. Bu esa, uzoq muddatda va sekin bo'lsa ham umuman to'xtatib qo'yishdan yoki stressga tushib foydasiz asabiyashishdan ko'ra, oz-ozdan o'rganib bo'lsa ham maqsadga erishishni foydaliroq ekanligini ko'rsatadi.

Shuni ham qo'shimcha qilmoqchi edimki, yaxshi kayfiyat, ijobjiy ichki ruhiy kechinma va yaxshi hordiq ham chet tili o'rganishda katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Erkaboyeva N. "O'zbek tilida ma'ruzalar to'plami"
2. Shoabdurahmonov Sh. Hozirgi zamon o'zbek adabiyoti 1986 y
3. Steinbeck J. Cup of gold. 1929
4. Ozodlik radiosи
5. Daryo.uz